

---

## RASMIY MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda Qirguli mavzeidagi Kimyogarlar ko'chasidagi madaniy hordiq olish maskanida olib borilayotgan qurilish ishlari bo'yicha e'tirozli murojaat tarqaldi. Mazkur murojaat Farg'ona shahar hokimligi va tegishli tashkilotlar mutaxassislari tomonidan o'rganib chiqildi.

O'rganish davomida "Farg'ona city-stroy" MChJ tomonidan Kimyogarlar ko'chasi("Madaniyat uyi" ro'parasi)da madaniy hordiq olish maskanini o'z ichiga olgan "Yoshlar mehnat guzari" kompleksini qurish, shuningdek tutash hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish uchun bir gektar yer maydoni ajratilganligi aniqlandi.

Hozirda tadbirkor tomonidan bosqichma-bosqich qurilish ishlari olib borilmoqda. Hududdagi manzarali daraxtlarni saqlab qolish, maydonlarni ko'kalamzorlashtirish va parvarish qilish choralari ko'rilgan.

Qurilish maydoni atrofidagi mavjud daraxtlar xatlovdan o'tkazilib ekologiya boshqarmasining Farg'ona shahar bo'limi tomonidan nazoratga olinganligini ma'lum qilamiz.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-09-20 08:40:34